

**2022-yilning yanvar-mart oyida  
Farg'ona viloyatida  
Xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

## Dastlabki ma'lumotlar

120,1 %

O'sish sur'ati

63,6%

Kichik  
tadbirkorlikning  
ulushi

4839,8 mlrd.  
so'm

Xizmatlar hajmi

### Xizmatlar sohasi

1239,4

ming so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
xizmatlar

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli  
xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib,  
ishlab chiqarish samaradorligini  
oshirishga yordam beradi

Farg'ona viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rinn tutadi.

2

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-mart oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4839,8 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **543,3 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,1 %ni** tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2022-yil yanvar-mart oyida)

543,3  
mlrd. so'mga

Hajmning  
o'sishi

4839,8  
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

120,1%

O'sish sur'ati



3

Farg'ona viloyati xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2022-yil yanvar –mart oyida


## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yilning yanvar-mart oyida)	Hajmi, mldr. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4839,8</b>	<b>120,1</b>
<b>shu jumladan:</b>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	250,8	119,9
Moliyaviy xizmatlar	1228,2	183,0
Transport xizmatlari	822,3	109,7
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>763,6</b>	<b>106,4</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	113,5	103,2
Savdo xizmatlari	1410,8	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	115,0	108,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	167,8	107,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	97,8	101,9
Ijara xizmatlari	96,1	93,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	124,9	106,4
Shaxsiy xizmatlar	263,7	102,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,9	116,9
Boshqa xizmatlar	110,0	105,6

# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da




Jamiga nisbatan yuqori ulushga ega savdo xizmatlari (**29,1%**), transport xizmatlari (**17,0 %**), shuningdek, moliyaviy xizmatlar (**25,4 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**5,2 %**) qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### 2022-yil yanvar-mart oyida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %

2022-yil yanvar-mart oyida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 822,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 763,6 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,9 %ni tashkil etadi.



## Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022-yilning yanvar-mart oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,1 %**ni tashkil etdi, bu esa **1410,8 mld. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilda ularning hajmi **1224,4 mld. so'mga** yoki umumiylajmida **32,4 %iga** to'g'ri keldi.

### Savdo xizmatlari

1410,8

Xizmatlar hajmi,  
mld. so'm

1224,4

104,3

O'sish sur'ati, %da

100,6

2022-y. Yanvar- mart

2021-y. Yanvar- mart

7

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2022-yil yanvar–mart oyida

## Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.



### Moliyaviy xizmatlar

(2022-yilning yanvar-mart oyida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **1228,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilda ularning hajmi **669,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **25,4 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilda ularning ulushi **17,7 %**ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **558,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **183,0 %**ni tashkil etdi.



Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022-yil yanvar-mart oyida


## Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022-yilning yanvar–mart oyida)



2022-yilning yanvar–mart oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi **250,8** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2021-yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **119,9 %**ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilda ushbu xizmat turi hajmi 206,8 mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylaj hajmining **5,5 %**ga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **111,2 %**ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar

143,4  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

167,8  
mlrd. so'm

2021-y.  
yanvar-  
mart



2022-y.  
Yanvar-  
mart

2022-yilning yanvar-mart oyida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **167,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **3,5** %ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan **107,5** %ni tashkil etdi.

101,7 %

2021-yilga nisbatan  
%da

107,5 %



Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2022-yil yanvar – mart oyida

## Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



2021-y.  
yanvar-mart



2022-y.

2021-yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 15,0 mlrd. so'mga ko'paygan.



Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2022-yil yanvar-mart oyida

## Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

#### Yanvar- mart

**2021-y.**

86,6 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

**2022-y.**

97,8 mlrd.  
so'm

2,3 %

Xizmatlar-  
ning jami  
hajmidagi  
ulushi

2,0 %

**12**

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2022-yil yanvar-mart oyida



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2022-yilning yanvar-mart oyida)**

	Hajmi, mldr. so'm	O'sish sur'ati, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>4 839,8</b>	<b>120,1</b>
Farg'ona sh	983,2	120,2
Qo'qon sh	494,2	120,1
Quvasoy sh	202,4	119,9
Marg'ilon sh	307,8	121,0
Oltiariq t	176,3	120,8
Qo'shtepa t	268,2	120,2
Bag'dod t	134,4	117,1
Buvayda t	239,3	122,6
Beshariq t	126,4	121,7
Quva t	133,9	121,1
Uchko'prik t	193,5	118,9
Rishton t	222,1	122,6
So'x t	100,6	118,1
Toshloq t	184,9	119,4
O'zbekiston t	167,4	120,8
Farg'ona t	264,6	120,3
Dang'ara t	148,6	120,9
Furqat t	280,6	117,6
Yozyovon t	211,3	117,5

*\* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda*

**13**

**Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

*2022-yil yanvar–mart oyida*

## Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoque.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

#### Hajmning o'sishi

1 239,4 ming so'm

63,6 ming so'm

2022-yilning yanvar-mart oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 239,4 ming so'mga yetdi.

2021-yilga nisbatan 117,7 %ni tashkil etdi.

117,7%

#### O'sish sur'ati

#### Taqqoslash uchun:

2021-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 987,9 ming so'mni tashkil etdi.

14

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


2022-yil yanvar –mart oyida

## Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **66,3 %**, sanoat **21,2 %**, qurilish **7,8 %**ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **4,7 %**ga to'g'ri keladi.

### 2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

#### Sanoat



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.  
Tel.: 73-241-98-82

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

15